

BOLALARDA KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH METODLARI

Karayeva Karima Nabiyevna

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti

karimakarayeva1@gmail.com

Shaxaldarova Gulchehra Sagdiyevna

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti DSc doktoranti

shaxaldarovagulchehra@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola bolalarda kitobxonlikni shakllantirish va tarbiyalash haqida bo'lib, unda bolalarning kitobga bo'lgan munosabatini yaxshilash, ularni kitobsevarlikka o'rgatish va kitobning naqadar inson ma'naviyati uchun muhim omil ekanligi asta-sekin bola ongiga singdirish hamda ularga qanday adabiyotlarni mutaola qilish xususida.

Kalit so'zlar: Kitob, kitobxonlik, adabiyot, tarbiya, ma'naviyat, ong, metod.

Аннотация: Эта статья о формировании и воспитании чтения у детей, о совершенствовании отношения детей к книгам, о том, как научить их любить книги, а также о том, как книги являются важным фактором духовности человека.

Ключевые слова: Книга, книголюб, литература, образование, духовность, сознание, метод.

Abstract: This article is about the education and training of reading in children, about improving children's relationship with books, about how to teach them to love books, and also about the fact that books are a condition for ensuring a person's spirituality.

Key words: Book, reader, literature, education, spirituality, consciousness, method.

Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi samarador metodlar qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Ammo hech bir vosita kitobchalik inson ongiga tasir eta olmaydi. Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan.

G'azal mulking sultoni ulug' mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Yaxshi kitob – eng yaxshi ustoz", "Kitob bilim – bulog'i", "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Kitobli uy – nurli uy" kabi hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rnini bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13-sentyabrda qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2020 yil 14-dekabrda 781-son qarori ijrosi yuzasidan joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda[1][2].

Kitobga oshno kishidan hech vaqt yomonlik chiqmaydi. Farzandlarimizga kitob o'qishni targ'ib etishimiz emas, balki ularga o'rnak bo'lishimiz lozim.

Bolalarda qanday qilib kitobsevarni shakllantirish va tarbiyalash kerak?

Agar ota-onalar bolalarini erta bolaligidan kitob mutaola qilishga undasa, unga ko'p va zavq bilan o'qib bersa, bola kitob nima ekanligini hali tushunmagan holda, unga qiziqish bilan munosabatda bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar farzandlari uchun bir oylik bo'lganida kichik karton kitoblarni sotib olishadi. Kichikintoyiga yorqin rasmlari bor kitobni ko'rsatish, unga oddiy qofiyalar va bolalar uchun ertaklar, she'rlarini o'qish, unga kitoblarni tegish, varaqlash va hatto chaynash imkonini berish orqali ularda kitobga bo'lgan muhabbatni oshirish mumkin. Kitob - bu doimo bo'lishi kerak bo'lgan narsadir degan fikr shakllandi. Kichik yoshdagi bolalar va yomon o'qiydigan bolalar bilan uyda ishlashni qanday tashkil qilish lozim:

- uyda o'qish uchun tinch, qulay muhit yaratish;
- kun davomida farzandingiz uchun qulay bo'lgan vaqtda o'qishi bilan shug'ullaning;
- bola o'qiyotganda, yaqinroq bo'ling (noaniq so'zni tushuntirish uchun, kulgili daqiqada birga kuling), lekin uning yoniga o'tirib olmang (bu majburlash ta'sirini keltirib chiqaradi);
- agar bolaga mustaqil o'qish qiyin bo'lsa, u holda dastlab berilgan matnni bolaga ovoz chiqarib o'qib chiqing, keyin u mustaqil o'qiydi va siz uni to'g'rilaysiz yoki avval siz iborani o'qiysiz, keyin bola xuddi shu iborani o'qiydi;
- har bir bolaning muvaffaqiyatini, hatto sizning nuqtai nazarangizdan ahamiyatsiz bo'lsa ham, maqtov yoki rag'batlantirish bilan bolani hursand qiling shunda bola sizni muvaffaqiyatlari bilan xursand qilishga harakat qiladi;
- bolaning yutuqlarini boshqa bolalarning (ayniqsa, uning aka-uka va opa-singillarining) muvaffaqiyatlari bilan solishtirmaslik kerak-doimiy noqulay taqqoslash bolaning o'ziga bo'lgan hurmatini pasaytiradi va uning yanada muvaffaqiyatli bolalarga nisbatan dushmanligini davom ettiradi.

Psixologlarning fikricha, o'qishni yoqtirmaslik bolaning shunchaki o'qishga qiziqmasligi bilan bogliq. Shu sababdan bolada kitobga mehr uygotish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

Farzandingizga kitobga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgating! Farzandingizga faqat yuqori sifatli adabiyotlarni taklif qiling (dizayn va mazmunan).

Farzandingizda kitob o'qishga qiziqish uyg'oting. Bolaligidanoq bolangizga kulgili, qiziqarli ertak va she'rlarni o'qing. Har kuni ota-onalardan biriga bola bilan o'qish va u bilan o'qiganlarini muhokama qilish uchun bepul yarim soat yoki bir soat bo'lishi tavsiya etiladi[3].

Bugungi kunda mana shu muqaddas meros va qadriyatga sadoqat sifatida bolalarda maktab hamda kutubxona hamkorligida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ehtiyoji vujudga kelmoqda. Bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda kutubxona hamkorligini ta'minlash bo'yicha alohida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi quyidagi sabablarga ko'ra yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

- 1) mazkur mavzuda bugungi kunga qadar maxsus pedagogik izlanishning amalga oshirilmaganligi;
- 2) bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda kutubxona hamkorligining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, metodologik asoslari etarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- 3) maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish, uni umumta'lim va umumtarbiyaviy faoliyatning uzviy bo'g'ini sifatida baholab yondoshish talab darajasida emasligi, mazkur ijtimoiy-pedagogik institutlar orasida hamkorlikning ta'minlanmaganligi;

4) maktab kutubxonalari ishini O'zbekiston maktablari oldiga qo'yilgan shu kungi talablardan kelib chiqqan holda maqsadli faollashtirish yo'llari va usullarini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar va uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi;

5) maktab kutubxonalari faoliyatini bolalar ongida milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish talablari doirasida yoshlarni tarbiyalashning muhim markazi sifatida tizimli takomillashtirish yo'llarining nazariy asoslab berilmaganligi.

Kitob insoniyat aql-zakovati yaratgan eng buyuk mo'jizalardan biridir. Kitoblar va kutubxonalar bola shaxsi kamoloti va uning taraqqiyotiga xizmat qilganligi uchun ham hamisha e'zozlanadi[4]. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, kitobxonlik - bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'gitlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada ma'naviy qashshoqlik bolada yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.09.2017 yildagi PQ-3271-son
2. 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 781-sonli qarori, 14.12.2020 yil 4-bet.
3. Y.Qayumxo'jayeva "O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari" –T.: 2011.-B.14-15.
4. <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-tarbiya--taraqqiyot-poydevori>